



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASHISH TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARI

Raximov Nodirbek Mutalliyevich

Namangan Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti

o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7409233>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2022

Accepted: 05th December 2022

Online: 07th December 2022

KEY WORDS

Uyushgan jinoyatchilik, transmilliy jinoyatlar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish, maxsus vakolatli davlat organi, huquqni muhofaza qiluvchi va tergov organlari, jinoyatning tarkibi, aylantirish xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik, almashtirish, o'tkazish, jinoyatning maqsadi.

Amalga oshirilayotgan demokratik islohatlarning hozirgi bosqichdagi muhim yo'nalishlaridan biri, bu-qonun ustuvorligini mustahkamlash, shaxs huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli va samarali himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi keskin va murosasiz kurash ayni paytda jahon hamjamiyatini o'ylantirib kelayotgan muhim va dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uyushgan

ABSTRACT

Ushbu maqolada jahon hamjamiyatini xavotirga solayotgan va uyushgan jinoyatchilikning rivojlanishiga sharoit yaratayotgan transmilliy jinoyatlar sifatida e'tirof etilayotgan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi, shuningdek ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilingan qonun hujjatlari mazmun-mohiyati, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish xususida so'z yuritiladi.

jinoyatchilikning transmilliy xarakter kasb etishi ushbu muammoga ko'proq e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Jahon hamjamiyatini xavotirga solayotgan va uyushgan jinoyatchilikning rivojlanishiga sharoit yaratayotgan transmilliy jinoyatlardan biri sifatida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatini misol qilishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida 2004 yil 26 avgustda "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni



moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi 660-II-son qonuni qabul qilingan bolib, ushbu qonunning maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur qonunda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar korsatib otilgan bo'lib, quyidagilardan iborat,

- maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;
 - ichki nazorat;
 - mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar;
 - tavakkalchiliklarni aniqlashga, baholashga va kamaytirishga doir choralar.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 28-iyunda PF-6252-sonli "O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon qabul qilindi.

Mazkur farmonni qabul qilishdan maqsad, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish samaradorligini oshirishdan iborat.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi", jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida ishtirok etuvchi vazirlik va idoralar ro'yxati tasdiqlandi.

Shuningdek, farmonga ko'ra, quyidagilar strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida milliy darajada aniqlangan tavakkalchiliklarni kamaytirish hamda davlat siyosatini yanada mustahkamlash;

ushbu sohadagi milliy tizimning xalqaro hujjatlarga muvofiqligini, shuningdek, FATF standartlari va xalqaro-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga implementatsiya qilinishini ta'minlash;

mazkur sohadagi jinoyatlarning barvaqt oldini olish borasida davlat organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi



tashkilotlarning javobgarligini kuchaytirish;

xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda tizimli muloqotni yo'lga qo'yish;

sohadagi barcha statistik ma'lumotlarning yaxlit tizimini shakllantirish, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va ulardan foydalanish hamda axborot almashinuvi samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

sohaga jalb qilingan davlat organlari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish, shuningdek, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar xodimlarini o'qitish hamda qayta tayyorlashdan iborat. Strategiya doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilishi belgilanadi:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorismni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlarning qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilinishi ta'minlanadi hamda milliy qonunchilik takomillashtiriladi;

ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarish yuzasidan qonunchilik hujjatlaridagi kamchiliklar bartaraf etiladi, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini bajarish samaradorligi oshiriladi;

milliy tizim yanada mustahkamlanadi hamda moliyaviy sektor barqarorligi ta'minlanadi;

respublikaning xalqaro reytinglar va indekslar bo'yicha ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021 yil

19 oktabrda 3327-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2021 yil 30 iyuldagi 53-B-son buyrug'iga ilova:

"Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to'xtatib turish, pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish, ishga solmay to'xtatib qo'yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan bo'lib, mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorismni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to'xtatib turish, pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish, ishga solmay to'xtatib qo'yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibini belgilaydi.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 243-moddasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati ko'rsatib o'tilgan bo'lib, mazkur jinoyat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining "Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar" jumlasiga kiritilgan.

Ushbu moddaga muvofiq, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya'ni mulk (pul mablag'lari



yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirish yoxud sir saqlash jinoyat sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, mazkur jinoyat sanksiyasi ham quyidagi tarzda belgilangan. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya'ni mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirish yoxud sir saqlash, — besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu jinoyatning tarkibi sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Mazkur jinoyatning bevosita obyekti respublika iqtisodiy faoliyati sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, jamoat xavfsizligini taminlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Jinoiy faoliyat natijasida aybdor qo'lga kiritgan daromadlar, yani mulk (pul mablag'lari yoxud boshqa ashyolar) jinoyatning predmeti hisoblanadi.

Odatda mazkur qilmishning predmeti talon-toroj qilish, kontrabanda, tovlamachilik, giyohvandlik vositalari yoki

psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish, fohishaxona ochish yoki saqlash, pornografiya materiallarini tayyorlash yoki tarqatish kabi jinoyatlarni sodir etish oqibatida olingan ashyolardir.

Obyektiv tomondan jinoyat jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, yani mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirish yoxud sir saqlash kabi harakatlarda ifodalanadi.

- Aylantirish deganda, jinoiy faoliyatdan olingan mol-mulkka qonuniy tus berish maqsadida unga egalik qilish, undan foydalanish, tasarruf qilish uchun oldi-sotdi, almashtirish, sovg'a qilish va fuqarolik huquqiy bitimlar tuzish, qonuniy tadbirkorlik yoki ishlab chiqarish tuzilmasini tashkil etish yoxud ular faoliyatining ishlab turishini taminlashga sarflanishini tushuniladi.

- Almashtirish deganda, jinoiy faoliyatdan o'zbek so'mida olingan daromadlarni boshqa chet el valyutasiga konvertatsiya qilish tushuniladi. Jinoyat Kodeksi 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyat shu modda dispozitsiyasida sanab o'tilgan harakatlardan birontasi sodir etilgan paytdan etiboran tugallangan deb etirof etiladi.

- O'tkazish deganda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar bilan banklarda bank bilan tuzilgan omonat shartnomasiga ko'ra



biron-bir moliyaviy operatsiya o'tkazilishi tushuniladi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatni sodir etish motivi va undan ko'zlangan maqsad jinoyatning kvalifikatsiyasiga tasir etmaydi. Jinoyatning maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirishdir.

Mazkur jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso va jinoiy faoliyat natijasida olingan daromadlarni oshkorlashtirishda ishtirok etgan jismoniy shaxs hisoblanadi

Ushbu jinoyatning bevosita ob'yekti respublika iqtisodiy faoliyati sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoiy faoliyat natijasida aybdor qo'lga kiritgan daromadlar, ya'ni mulk (pul mablag'lari yoki boshqa ashyolar) mazkur jinoyatning predmeti hisoblanadi. Mazkur qilmishning predmeti talon-taroj qilish, kontrabanda, tovlamachilik, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish, fohishaxona ochish yoki saqlash, pornografiya materiallarini tayyorlash yoki tarqatish kabi jinoyatlarni sodir etish oqibatida olingan ashyolar hisoblanadi.

Ushbu jinoyat bilan bog'liq ma'lumotlar bir qator davlatlar jinoyat qonunida jinoyat sodir etish usuliga ko'ra bir necha ko'rinishlari alohida ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining jinoyat kodeksida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati "iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar" turkumiga kiritilgan va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati shaxsan jinoyat sodir etish orqali topilgan daromadlarni

legallashtirish va boshqa shaxslar tomonidan jinoyat sodir qilish orqali topilgan daromadlarni legallashtirish kabi ko'rinishlarini farqlaydi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyati bir davlat chegarasidan boshqa davlat chegarasiga o'tish barobarida mazkur jinoyatchilikka qarshi xalqaro-huquqiy hamkorlikni kuchaytirish lozim bo'ladi.

Davlatlarning jinoiy ishlar bo'yicha hamkorligi mintaqaviy darajada rivojlanadi va bunday hamkorlikning faqat ayrim jihatlari ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarga kiritiladi. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga ixtisoslashgan tashkilotlar bilan xalqaro-huquqiy hamkorlik qilish ham ijobiy natijalarga olib keladi. O'zbekiston Respublikasida aynan jinoyatchilikka xususan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatlariga qarshi kurashda xalqaro-huquqiy hamkorlikni tartibga solishga qaratilgan xalqaro-huquqiy hamkorlikning huquqiy asoslari xalqaro shartnomalar va bir qator qonun va qonunosti hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatini xalqaro hamjamiyat tomonidan transmilliy jinoyat deb e'tirof etilganidan tashqari, sodir etilishi natijasida xalqaro hamjamiyat uchun alohida ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lgan oqibatlar keltirib chiqarishi va jinoiy hatti-harakatlar xalqaro majburiyatlarning bajarilmasligi natijasida amalga oshirilishi, jinoyatning oldini olish va qarshi kurashda birgalikda faoliyat olib borish zaruriyati tufayli transmilliy xarakterdagi jinoyat sifatida e'tirof etiladi.



Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatini transmilliy xarakterdagi jinoyat sifatida e'tirof etishning yana bir o'ziga xos jihati, jinoyatning xalqaro huquq sub'yektlari va jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilishini va jinoyat sub'ektlarining javobgarlik mexanizmini alohida ta'kidlash lozim.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga muvofiq, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur hamkorlik ushbu jinoyatga qarshi kurash olib borishning zaruriy sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni 22-moddasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik ko'rsatib otilgan bolib, unga ko'ra jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Maxsus vakolatli davlat organi zarur axborot taqdim etish to'g'risida chet davlatlarning vakolatli organlariga so'rovlar yuborish va chet davlatlar vakolatli organlarining so'rovlariga javob qaytarish huquqiga ega.

Shuningdek, mazkur hamkorlikni ta'minlash masalasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 402-son qarori bilan tasdiqlangan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom talablari bilan mustahkamlangan.

Xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari hamda legallashtirishga va predikat jinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan xalqaro shartnomalari mavjud bo'lmagan taqdirda, xalqaro hamkorlik o'zarolik prinsipi asosida amalga oshiriladi.

Bunda, O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organi tomonidan xorijiy davlat vakolatli organiga o'zarolik prinsipi asosida yuboriladigan xalqaro so'rovlarda kelgusida xorijiy davlat vakolatli organi tomonidan yuboriladigan so'rovlarning ko'rib chiqilishi kafolatlanishi lozim.

Xorijiy davlatlar vakolatli organlarining o'zarolik prinsipi asosida yuborgan xalqaro so'rovlari, agar ularda O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari tomonidan kelgusida yuboriladigan so'rovlarning ko'rib chiqilishini kafolatlovchi talablar bo'lgan taqdirdagina O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari yoki xorijiy davlatlar vakolatli



organlarining xalqaro so'rovlariga yoki o'z tashabbuslariga ko'ra amalga oshiriladi.

Shuningdek, nizomda Huquqni muhofaza qiluvchi va tergov organlarining xalqaro hamkorligi masalasiga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, unga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi va tergov organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi yo'nalishlarda xalqaro hamkorlikni amalga oshiradilar:

- huquqni muhofaza qiluvchi va tergov organlarida mavjud bo'lgan yoki olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni almashish;

- o'z tashabbuslari yoki xalqaro so'rovga asosan, xorijiy davlatlar vakolatli organlariga legallashtirish holatlarining sodir etilishini tasdiqlovchi yetarli asoslar (gumonlar) mavjud bo'lgan taqdirda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlaridan olingan ma'lumotlarni yuborish;

- legallashtirish holatlarini hamda predikat jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda, shuningdek, ushbu jinoyatlarga aloqador jismoniy yoki yuridik shaxslarni va benefitsiar mulkdorlarni aniqlashda ko'maklashish;

- qonunchilikda belgilangan tartibda xalqaro tashkilotlarning legallashtirishga qarshi kurashish masalalarga doir faoliyatida ishtirok etish.

Huquqni muhofaza qiluvchi va tergov organlari qonunchilik hujjatlari doirasida boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham xalqaro hamkorlikni amalga oshiradilar.

Shuningdek, nizomda o'zaro huquqiy yordam masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlik masalasi belgilangan bo'lib, unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, maxsus vakolatli davlat organi va Bosh prokuratura Majburiy ijro byurosi xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan tezkor-qidiruv faoliyati, tergov, sud muhokamasi va sud hujjatlarini ijro etish doirasida o'zaro ma'lumotlar almashish borasida hamda ushbu Nizomda belgilangan boshqa masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshiradilar.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish har bir davlatning taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi keskin va murosasiz kurash jahon hamjamiyatini o'ylantirib kelayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanib, uyushgan jinoyatchilikning transmilliy xarakter kasb etishi ushbu muammoga barcha davlatlar tomonidan ko'proq e'tibor qaratishi lozimligini taqozo etadi. Shu munosabat bilan, mazkur jinoyatga qarshi jahon hamjamiyati tomonidan hamkorlik ko'lamini kengaytirish, unga qarshi birgalikda kurashish, kelgusida shu kabi jinoyatlarning sodir etilishining keskin oshib ketishining oldi olingan bo'ladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasida "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. Toshkent sh. 2004 yil 26 avgust, 660-II-son.



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2021-yil 28-iyun. PF-6252.
 3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 402-son qarori bilan tasdiqlangan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom. 2021-yil 29-iyun. 402-son.
 4. Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to'xtatib turish, pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish, ishga solmay to'xtatib qo'yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021 yil 19 oktabrda 3327-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2021 yil 30 iyuldagi 53-B-son buyrug'iga ilova.
 5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 22.09.1994.www.lex.uz.
 6. M.X.Rustamboyev. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi V Tom Maxsus qism Jamoat Xavfsizligi va Jamoat Tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik (2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan) TOSHKENT.O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti, 2018
- Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi. 13.06.1996 N 63-Φ3